

## SUSADIKA loyihasi doktorantlari yillik hisobotida

"Ekologiya va SRB" kafedra mudiri A. Karimov fevral oyining 18-20 kunlari SUSADIKA loyihasi doktorantlarini yillik hisobotida Germaniyaning IAMO institutida Leypsig shahrida qatnashdi. Seminarda 10-dan ortiq doktorantlar o'z izlanishlari natijalarini keltirishdi. Xizmat safari asosida quyidagi takliflar qilindi:

1. Germaniyada professor 300 yoki undan ko'p talabalarga ma'ruzalar o'qishi zarur. Bu tajribani o'rganish va qabul qilish kerak. Bu tajribaning xususiyatlardan biri GOOGLE Forms va boshqa dasturlardan foydalanish bo'lib, u darslarni interaktiv tarzda o'tkazish va o'quvchilarni masalalar muhokamasiga jalg qilish, savollar olish, bevosita sinf davomida olingen bilim darajasini tekshirish imkonini beradi. Bu tajriba olingen bilim darajasini, talabalarning darslarga bo'lgan qiziqishini va institutning umumiy moliyaviy holatini keskin oshirishi mumkin.
2. Doimiy Internet tarmog'iga ega bo'lgan amaliy mashg'ulotlar va o'qituvchilar ofislari uchun ma'ruza zallari va sinf xonalari bo'lishi.
3. Institutning barcha kompyuterlarida Microsoft eski versiyalaridan voz kechilgan. Fayl kengaytmasida x yo'q masalan doc, xls, ppt o'rniga Winword, Excel va boshqa dasturlarning yangi versiyalari bilan programmalar yangilang. Bu virus hujumlaridan kelib chiqadigan zararni keskin kamaytirish kutilmokda.



### SUSADICA loyihasi buyicha

4. Loyihaning doktorantlari TIIMSXda ham, Germaniyada ham himoya qilinishini ta'minlash uchun qadamlar qo'yilmoqda, bu institutning manfaatlariga mos keladi va bu jarayon olg'a surilishi lozim. Buning uchun, TIIIMSX doktorant talabalar ro'yxatiga SUSADIKA loyihasini doktorantlarini qo'shilishi muhokama qilindi. Shu bilan birgalikda ular institut doktorantlarning huquqlaridan, jumladan, O'zbekistonda bo'lgan chog'larida institut yotoqxonasida yashash huquqidan foydalanishlari qayd etilib o'tildi.
5. Seminar davomida loyiha menejeri prof. Martin Petrik doktorantlarning barcha taqdimotlari IAMO va TIIIMSX logotipiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Maqolalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shuningdek, loyiha doktorantlari va institut o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish imkonini bergenligi uchun institutga minnatdorchilik bildirilishi lozimligi qayd etildi.
6. Ilmiy hamkorlikni kengaytirish maksadida doktorantlarning ilmiy faoliyatini ikki tomonlama boshqarish imkoniyatini yana bir bor ko'rib chiqish kerak.
7. Ayrim doktorantlarning mavzulari iqlim o'zgarishi, yer osti suvlari atrof-muhit va gidrologik jarayonlarni modellashtirish sohasidagi tadqiqotlarga qaratilgan. Shuning uchun institutni nafaqat Suv xo'jaligi iqtisodiyoti va Boshkaruv kafedralari o'qituvchilari bilan hamkor qilish, balki Ekologiya va suv resurslarini boshqarish va EKOGIS kafedralari o'qituvchilari bilan hamkorligi maqsadga muvofik.
9. Ekologiya va SRB kafedrasi o'qituvchilarini malakasini oshirish maksadida stajer o'qituvchi J. Mirzakabulovni may oyida Germaniyaga ikki hafta malaka oshirishi kelishib olindi.
10. Loyihaning doktorantlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarga magistr va bakalavriat talabalarini jalb etish masalasi muhokama qilindi. Bu masala prof. Petrikning 2020 yilning aprel oyida Toshkentga tashrifi chog'ida bat afsil muhokama qilinadi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**